



KEKSA YOSHDAGI BEMORLARDA SON SUYAGI BO'YINCHASI SINISHLARINI DAVOLASH MUAMMOLARI

QURBONOV ANUSHER SHERMAMATOVICH
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
DAVOLASH ISHI 3-KURS TALABASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada keksa yoshdagi bemorlarda son suyagi bo'yinchasi sinishlari (femur bo'yinchasi sinishi) uchrash sabablari, klinik xususiyatlari hamda ularni davolash jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Keksalik davrida suyak to'qimasining mo'rtlashuvi, osteoporoz, surunkali kasalliklarning mavjudligi va reabilitatsiya jarayonining murakkabligi ushbu turdagi sinishlarni davolashni qiyinlashtiradi. Maqolada konservativ va jarrohlik davolash usullarining afzallik va kamchiliklari, asoratlar hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: keksa yosh, son suyagi bo'yinchasi sinishi, osteoporoz, jarrohlik davolash.

Kirish

Bugungi kunda aholi orasida keksa yoshdagilar ulushi ortib borayotgani sababli travmatologiya va ortopediya sohasida keksalarga xos kasalliklar dolzarbligi oshib bormoqda. Shular jumlasidan, son suyagi bo'yinchasi sinishlari keksa yoshdagi bemorlar orasida eng ko'p uchraydigan va og'ir kechuvchi jarohatlardan biridir. Ushbu sinishlar ko'pincha oddiy yiqilish natijasida yuzaga kelib, bemorning mustaqil harakatlanish qobiliyatini keskin cheklaydi. Natijada uzoq muddatli yotib qolish, ikkilamchi asoratlar va hatto o'lim xavfi ortadi.

Keksa yoshdagi bemorlarda son suyagi bo'yinchasi sinishlarini davolash murakkab bo'lib, bu nafaqat suyak jarohatining o'zi, balki organizmda kechayotgan umumiy yoshga bog'liq o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Shu sababli ushbu muammoni har tomonlama o'rganish va samarali davolash yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

1. Son suyagi bo'yinchasi sinishlarining kelib chiqish sabablari

Keksa yoshdagi bemorlarda son suyagi osteoporoz bo'lib, bo'yinchasi sinishlarining kelib chiqishi ko'p omilli bo'lib, ularning asosida yoshga bog'liq biologik va funksional o'zgarishlar yotadi. Eng muhim omillardan biri suyak to'qimasining zichligi va mustahkamligi pasayishi natijasida hatto minimal mexanik ta'sir ham sinishga olib kelishi mumkin. Ayniqsa menopauzadan



keyingi davrda ayollarda estrogen gormonining kamayishi osteoporoz rivojlanishini tezlashtiradi.

Bundan tashqari, mushak massasining kamayishi (sarkopeniya), muvozanat va koordinatsiyaning buzilishi, ko'rish va eshitish qobiliyatining pasayishi keksalarda yiqilish xavfini oshiradi. Surunkali kasalliklar, jumladan yurak-qon tomir tizimi, asab tizimi kasalliklari, qandli diabet ham umumiy holatni og'irlashtirib, travmalar ehtimolini ko'paytiradi.

Shuningdek, noto'g'ri ovqatlanish, kalsiy va D vitamini yetishmovchiligi, kamharakat turmush tarzi ham suyaklarning mo'rtlashuviga sabab bo'ladi. Uy sharoitida sirpanchiq pol, yoritilishning yetarli emasligi kabi tashqi muhit omillari ham son suya 'yinchasi sinishlarining kelib chiqanida muhim rol o'ynaydi

Klinik belgilari va tashxis

Son suyagi bo'yinchasi sinishlarida kuchli og'riq, oyoqning qisqarishi va tashqi tomonga burilishi kuzatiladi. Bemor oyoqqa tura olmaydi yoki harakatlanishi keskin cheklanadi. Tashxis qo'yishda rentgenografiya asosiy usul bo'lib, zarur hollarda kompyuter tomografiyasi qo'llaniladi.

Davolash usullari va muammolari

Davolash usuli sinish turi, bemorning yoshi va umumiy holatiga qarab tanlanadi. Konservativ davolash usuli (yotoq rejimi, immobilizatsiya) asosan jarrohlik mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi, biroq u uzoq muddatli harakatsizlik sababli asoratlar xavfini oshiradi.

Jarrohlik davolash (osteosintez, endoprotezlash) bugungi kunda eng samarali usul hisoblanadi. Biroq keksa yoshdagi bemorlarda narkozga chidamlilik pastligi, yurak va nafas tizimi muammolari jarrohlikni murakkablashtiradi. Shuningdek, operatsiyadan keyingi infeksiya, tromboemboliya kabi asoratlar xavfi yuqori bo'ladi.

Reabilitatsiya va hayot sifati

Son suyagi bo'yinchasi sinishidan keyingi reabilitatsiya keksa yoshdagi bemorlar uchun davolashning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Reabilitatsiyaning asosiy maqsadi bemorni imkon qadar erta harakatlantirish, mustaqil yurish qobiliyatini tiklash va uzoq muddatli yotib qolish bilan bog'liq asoratlarning oldini olishdan iboratdir. Erta boshlangan reabilitatsiya mushaklar atrofiyasi, yotoq yaralari, pnevmoniya va tromboemboliya kabi xavfli holatlarni kamaytiradi.

Reabilitatsiya dasturi individual tarzda tuzilishi lozim bo'lib, u fizioterapiya mashqlari, davolovchi jismoniy tarbiya, massaj va nafas mashqlarini o'z ichiga oladi. Operatsiyadan keyingi davrda bemorning umumiy holatini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich yuklama beriladi. Shu bilan birga, to'g'ri ovqatlanish, kalsiy va D vitamini bilan boyitilgan ratsion suyak



bitishini tezlashtiradi. Keksa yoshdagi bemorlarda psixologik holat ham alohida ahamiyatga ega. Uzoq muddatli davolanish va harakat cheklanishi ruhiy tushkunlik, qo'rquv va ishonchsizlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli yaqinlarining qo'llab-quvvatlashi, tibbiyot xodimlarining e'tibori bemorning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, samarali rehabilitatsiya nafaqat jismoniy tiklanishni, balki bemorning ijtimoiy hayotga qaytishini ta'minlab, uning hayot sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, keksa yoshdagi bemorlarda son suyagi bo'yinchasi sinishlarini davolash ko'p qirrali va murakkab muammo hisoblanadi. Davolash jarayonida bemorning umumiy holati, yoshi va hamroh kasalliklarini hisobga olish zarur. Zamonaviy jarrohlik usullari va to'g'ri tashkil etilgan rehabilitatsiya bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va asoratlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azamov A.A. Travmatologiya va ortopediya asoslari. – Toshkent: Ibn Sino, 2020.
2. Rockwood C.A., Green D.P., Bucholz R.W. Rockwood and Green's Fractures in Adults. – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2019.
3. Court-Brown C.M., Heckman J.D., McQueen M.M. Trauma. – Oxford: Oxford University Press, 2015.
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Osteoporosis prevention and management. – Geneva, 2018.
5. Mirzayev F.M. Keksa yoshdagi bemorlarda son suyagi sinishlarini davolash muammolari // Tibbiyot jurnali, 2021, №3.